

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
GIDROMELIORATIV MASHINA VA JIHOZLARIDAN FOYDALANISH
FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN GIDROMELIORATIV MASHINA VA JIHOZLARIDAN FOYDALANISH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Hidromeliorativ mashina va jihozlaridan foydalanish fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Gidromeliorativ mashina va jihozlardan foydalanish

1. Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi ishlari
2. Hidromeliorativ ishlarni tashkil etish va texnologiyasi
3. Hidromeliorativ mashina va jihozlaridan foydalanish
4. Hidromeliorativ mashina va jihozlarining tuzilishi
5. Hidromeliorativ mashina va jihozlarining tuzilishi, ishlatilishi va ularga texnik xizmat ko‘rsatish
6. Meliorativ gidrogeologiya

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi ishlari	Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi ishlarini tashkil etishda sug'orish melioratsiyasi, zax qochirish melioratsiyasi bo'yicha tushunchalarga ega bo'lishi talab etiladi. Yerga ishlov berishda qo'llaniladigan tadbirlar bo'yicha qishloq xo'jaligi melioratsiyasini agromelioratsiya, o'rmon – texnik melioratsiya, gidrotexnik melioratsiya, kimyoviy melioratsiya, issiqlik melioratsiyasi, madaniy-texnik melioratsiya va boshqa turlari bo'yicha bilimlarni bilish, tahlil qilish.	10 ta
2	Gidromeliorati v ishlarni tashkil etish va texnologiyasi	Gidromeliorativ ishlarini tashkil etish soha mutaxassislarining ishlab chiqarish hamda ta'lim jarayonlarda kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini bilish. Bo'lajak mutaxassislariga gidromelioratsiya obyektlari qurilishi, ta'mirlanishi va modernizatsiya qilinishi jarayonlaridagi bajariladigan ishlarni tashkil etish. Texnologik jarayonlarni tanlash ishlarni mexanizatsiyalash masalalar bo'yicha ko'nikma va bilimlarga ega bo'lish va tahlil qilish.	8 ta
3	Gidromeliorati v mashina va jihozlaridan foydalanish	Gidromeliorativ mashina va jihozlaridan foydalanish fanida mutahassislar sug'orish, drenaj va yer melioratsiyasi ishlarida ishlatiladigan asosiy mashinalar va jihozlar to'g'risida bilish. Sug'orish mashinalari — suv nasoslari, rotorli va traktor yoki shu kabi texnikaga ulab ishlatiladigan sprinklerlar, markaziy pivot tizimlar orqali suvni maydonga teng taqsimlash qurilmalarini bilish. Drenaj ishlarida drenaj qazuvchi mashinalar, suv nasoslari va kanal tozalash uskunalaridan foydalanish. Shu bilan birga, qum va loyni ko'chirish, tuproqni tekislash va tayyorlash, tub drenaj quvurlarini o'rnatish kabi meliorativ ishlarda ishlatiladigan texnikalarni bilish. Gidromeliorativ ishlarni samarali va resurs-tejamkor bajarish ko'nikmalariga ega bo'lish.	4 ta
4	Gidromeliorati v mashina va jihozlarining tuzilishi	Gidromeliorativ tizimlar va ularning elementlari, ishlash prinsiplari hamda ularning asosiy elementlari haqida tushunchaga ega bo'lish.	4 ta

		Gidromeliorativ mashinalarning konstruksiyasi, texnik tavsiflari va ishlash mexanizmlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi va tahlil qilishi.	
5	Gidromeliorati v mashina va jihozlarning tuzilishi, ishlatilishi va ularga texnik xizmat ko'rsatish	Ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatishda mashina va jihozlardan samarali foydalanish, ularni sozlash, profilaktik xizmat ko'rsatish va nosozliklarni aniqlash. Texnika xavfsizligi va ekologik talablar, ish jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha bilim va mas'uliyat darajasiga ega bo'lish.	4 ta
6	Meliorativ gidrogeologiya	"Meliorativ gidrogeologiya" gidrogeologiya fanining amaliy sohasi bo'lib, bu fan mutaxassislari yer osti suvlarini sug'orishga yaroqliligi bo'yicha bilimga ega bo'lish. Yerlarning meliorativ holatini baholashdagi tushunchaga ega bo'lishi, qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishni ta'minlaydigan turli meliorativ tadbirlarni tushunishi, yer yuziga yaqin joylashgan sizot suvlari, aeratsiya mintaqasi, tog' jinslari, meliorativ tadbirlar, inshootlar haqida bilish va tahlil qilish.	10 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Xamidov M., Shukurlayev X., Mamataliyev A. "Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi" Sharq Toshkent 2009.

2. Yusupov g'., Quvvatov D. "Meliorativ gidrogeologiya" o'quv qo'llanma Toshkent 2015.

3. Sherov A., Bekmirzayev G., Ubaydillayev A., Usmonov M. "Irrigation and drainage engineering" Toshkent 2025.

4. Irmuxamedova L., Firlina G., Po'latova M., "Gidromeliorasiya ishlarini tashkil etish va texnologiyasi" fanidan kurs loyihasini bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma Toshkent 2008.

5. Vafojev S., Dauletov N. "Melioratsiya va qurilish mashinalaridan foydalanish va texnik servis" Tafakkur bo'stoni Toshkent 2013.

6. Vafojev S., "Melioratsiya mashinalari" Toshkent 2013.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*